



## **ALISHER NAVOIYNING O`ZBEK ADABIYOTIGA QO`SHGAN HISSASI**

**To`rayeva Sayyora Baxtiyorovna**

Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi katta o`qituvchisi

**Kifoyatulloh Hakimiy**

Afg`oniston fuqarolarini o`qitish ta`lim markazi O`zbek tili va adabiyoti  
yo`nalishi 403 – guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7588083>

Annotatsiya: Navoiy faqat o`zbek emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo`lgan buyuk shaxsdir. Ushbu maqolada eski o`zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiyning o`zbek adabiyotiga qo`shgan hissasi va bu haqda zamondoshlarining fikrlari haqida so`z boradi.

Kalit so`z: rabot, xonaqoh, masnaviy, g`azaliyot, aruz, g`azal, ruboiy, qit`a, tuyuq, qasida, mustahzod, muxammas, musaddas, musamman, tarji`band, tarkiband

Alisher Navoiy nafaqat o`zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotining ulug` namoyandalaridan biridir. U butun faoliyati davomida o`zining g`azal, ruboiy, qit`a,


tuyuq, qasida, mustahzod, muxammas, musaddas, musamman, tarji`band, tarkiband, doston kabi 16 xil janrlarda barakali ijod qilib mumtoz adabiyotga ulkan meros qoldirdi. U o`z ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o`zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-san`at va adabiyot taraqqiyotiga bag`ishladi. Ulug` insonparvar, tadbirli davlat arbobi, eski o`zbek adabiy tilining asoschisi va o`zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog`onasiga ko`targan buyuk so`z san`atkori, qomuschi alloma bo`lib yetishdi. Milsiz iste`dod bilan insonga, elga xizmat qilish, uning baxt-saodati uchun kurashishi uni tafakkur va san`at cho`qqisiga ko`tardi. Navoiyning hayot va ijod yo`lini o`rganish uchun XV asrdagi ijtimoiy siyosiy hayotga nazar tashlamoq kerak.

XV asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi nisbiy ko`tarilishlar yuz beradi. Bu davrda Temuriylar siyosatining o`ziga xos qirralari yanada ko`proq namoyon bo`la boshlaydi. Amir Temur boshlab bergan buyuk rivojlan ish davom ettirildi. Endilikda hokimiyat tepasida Temurning farzandlari, nabiralari hukmronlik qilis hardi. Andijon, Toshkent, Xo`jand, Sayram, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Hisor, Qunduz, Marv shaharlari rivojlandi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro zamonida Hirot gullab-yashnaydi. Ulug`bek zamonida Samarqandda ilm-fan nihoyatda yuksaldi, o`zbek fanining dunyoga yoyilishida bu davr o`ziga xos o`rin tutadi. Xususan, aniq fanlar rivoji, ayniqsa, matematika,



astronomiyadagi yutuqlar salmoqli bo'ldi. Birgina Ulug'bek observatoriyasining yutuqlari natijasida 1018 ta yulduzning holati o'rganildi. Ma'lum bo'lishicha, yulduzlarning o'rnini belgilashdagi aniqlik hozirgi zamon yutuqlari bilan deyarli uyg'un keladi. Ulug'bekning otasi Shohruh mirzo qurdirgan kutubxona salmog'i va boyligiga ko'ra ham o'z zamonasida tengsiz edi.

obidalari sifatida bugun ham xalqimizning faxr-u iftixoriga sabab bo'lib kelmoqda. Hirot da Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning tashabbus va rahbarliklarida ko'plab binolar, madrasa va xonaqohlar, shifoxona, hammom va karvonsaroylar qurilgani, ariq va kanallar qazilgani, bog'-rog'lar barpo qilingani yaxshi ma'lum. Temuriylarning o'zaro nifoq va kurashlari Shayboniyxonning (1451–1510) tarix maydoniga kirib kelishi va bu maydonda barqaror turib qolishi uchun imkon beradi



Alisher Navoiy maqbarasi (Hirot)

Bu davrda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar ijodi jahon adabiyotining eng porloq namunalari sifatida e'tirof etildi. Badiiy ijodning ikki tilda yaratilishi ham shu davrning muhim xususiyatlaridan edi. Navoiy, Bobur mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad mirzo (1451–1494) singari ijodkorlar ikki tilda she'rlar yaratgan. Zullisonaynlik an'anasi ham Navoiy timsolida o'zining oliy cho'qqisiga ko'tarildi. Alisher Navoiy boshchiligidagi adabiy harakat turkiy til mavqeyi uchun qattiq kurash olib bordi va bu borada olamshumul g'alabalarni qo'lga kiritdi. Alisher Navoiy faqat o'zbek emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo'lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosning soni va hajmigagina emas, balki ular ning mazmun va yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz adibdir. Navoiyning



kichik zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur buni juda muxtasar tarzda ifodalab bergan: «Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she‘r aytibturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana biri «Mantiq ut-tayr» vaznida «Lison ut-tayr» otliq. To‘rt g‘azaliyot devoni tartib qilibtur: «G‘aroyib us-sig‘ar», «Navodir ush-shabob», «Badoyi ul-vasat», «Favoyid ul-kibar» otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana «Mezon ul-avzon» otliq aruz bitibtur... Forsiy nazmda «Foniy» taxallus qilibtur. Yana musiqiyda yaxshi nimalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur». Navoiy adabiyotshunos sifatida o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qiladigan ko‘plab ilmiy asarlar muallifidir. Xususan, uning o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixi uchun noyob manba sifatida katta ahamiyatga ega «Majolis un-nafois» asarida 459 ta shoir, yozuvchi, ijodkor haqidagi ma‘lumotlar jamlangan.

Alisher Navoiy nafaqat shoirlik balki yurtni obodonlashtirish, ichki nazoratni boshqarishda ham yetarli malakaga ega bo‘lgan. Astrobodga hokim bo‘lgan davrlarida o‘z mablag‘lari hisobidan bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ta ko‘prik, 20 ta hovuz qurdirgan. Bobokalonimizning “Mahbub ul-qulub”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Munshaot”, “Mezon ul-avzon”, “Muhokamat ul-lug‘atayin”, “Majolis un-nafois” singari asarlari bugungi kunda xalq ichida juda mashhurdir.

Alisher Navoiy qurdirgan madrasa, masjid, takka, rabotlar yuz yillar davomida Xuroson xalqlariga xizmat qilgan. XIX-XX asrlarda Afg‘onistonda yuz bergan nizo va to‘qnashuvlarda Hirot bir necha marta vayron etildi. Ulug‘ bobomiz qurgan binolar ham jiddiy zarar ko‘rdi. Hatto Navoiyning maqbarasi ham shikastlanish va qarovsizlikdan xarob holga tushdi. 2015 yilda o‘zbek ustalari ishtirokida Hazratning qabrtoshi va maqbarasi tiklangan edi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev kuni kecha qabul qilgan qarorga ko‘ra 2021 yilda alloma tavalludining 580 yilligi munosabati bilan Hirottdagi bu maqbara qayta ta‘mirlandi. Yaqinda Hirotning Guzargoh mavzesida Navoiy tomonidan qurdirilgan Jome masjidi TIKAning Hirot vakolatxonasi tashabbusi va moliyaviy ko‘magi bilan qayta ta‘mirlanib xalqqa qaytarildi. Uning asarlari, she‘riyati qayta-qayra ko‘chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o‘tadi, madrasalarda keng o‘rganildi. Alisher Navoiy ijodini o‘rganish uning ilmiy tahlili bo‘yicha so‘ngi yillarda qator taniqli tadqiqotchilar ish olib bordilar va bugungi kunda ham Navoiy merosi dunyo ahlini ilhomlantirib kelmoqda

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. Natan Mallayev, Toshkent, 2015
2. Saviya.uz

